Conference on Social Sciences and Humanities Research (CSSHR)
volume. 3 № 8
CSSHR
EYIB
EDUCATIONAL YIELD INSIGHTS & BREAKTHROUGHS
ISSN: 3060-4648



MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINING O‘SISHI: FISKAL AVTONOMIYAMI YOKI MA’MURIY QAYTA TAQSIMOTMI?

Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li
Guliston davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Tezisda mahalliy byudjetlar o‘z daromadlari ulushining o‘sishi haqiqiy fiskal avtonomiyani aks ettirishi tekshirilgan. Sirdaryo viloyati tuman va shaharlari hamda 14 hudud bo‘yicha panel modellar moliyaviy mustaqillikni iqtisodiy baza emas, ajratma me’yori belgilashini ko‘rsatdi. Mustaqillikni ko‘rsatkichlar tizimi bilan baholash, tenglashtirish va daromad biriktirish vazifalarini ajratish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy mustaqillik, mahalliy byudjet, ajratma me’yori, fiskal avtonomiya, soliq salohiyati, soliq olinmasi, panel tahlil, tenglashtirish.

Abstract. The paper tests whether the rising own-revenue share of local budgets reflects real fiscal autonomy. Panel models for Syrdarya districts and 14 regions show that financial independence is driven by the revenue-sharing rate rather than by the economic base. It proposes measuring independence with a set of indicators and separating equalization from revenue assignment.

Keywords: financial independence, local budget, revenue-sharing rate, fiscal autonomy, tax capacity, tax effort, panel analysis, equalization.

Byudjetlararo munosabatlar islohotining maqsadi mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirish, va birinchi qarashda bunga erishilgandek: 2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining (JShDS) kamida 50 foizini tuman va shahar byudjetlariga o‘tkazish talabi belgilangan [4], shundan keyin Sirdaryo viloyatida tuman va shahar byudjetlarining o‘z daromadlari bilan ta’minlanganligi 2024-yildagi 42,5 foizdan 2026-yilda 99,3 foizga ko‘tarildi [8].

Moliyaviy mustaqillik faqat o‘z daromadlarining ulushi emas, bu daromadlarni hududning o‘z harakati bilan o‘zgartirish imkoniyati hamdir [1; 2]. O‘zbekistonda asosiy soliqlarning stavkasi va bazasi respublika darajasida belgilanadi [6], ya’ni mahalliy byudjetning «o‘z daromadi» markazdan biriktirilgan umumdavlat soliqlari ulushidan iborat. Ulush yuqoridan belgilanadigan me’yor hisobiga oshsa, avvalgi transfert shunchaki «o‘z daromadi» deb atala boshlaydi.

Mahalliy byudjetlar o‘z daromadlari ulushidagi o‘sish haqiqiy fiskal avtonomiyaning kengayishini yoki bir xil daromad oqimining ma’muriy qayta nomlanishini aks ettirishini aniqlash. Buning uchun ikki panel shakllantirildi: Sirdaryo viloyatining 11 ta tuman va shahri bo‘yicha 2022–2026-yillar (55 kuzatuv) [8] hamda

14 ta hudud bo‘yicha 2024–2026-yillar (42 kuzatuv) [4; 5]. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti jon boshiga o‘z daromadlari, soliq salohiyati va soliq olinmasi bilan to‘ldirildi, omillar panel modellar bilan baholandi.

Tuman va shahar darajasida o‘sish iqtisodiy jarayon natijasi emas. 2022–2024-yillarda koeffitsiyent deyarli o‘zgarmagan, asosiy sakrash 2025-yilga to‘g‘ri keladi (42,5 → 88,0 foiz). 2026-yilda o‘n bir birlikdan to‘qqiztasida u aniq 100,0 foiz. Tartibga soluvchi transfert oluvchilar 11 tadan 2 taga, transfertlar hajmi 656,0 mlrd so‘mdan 7,2 mlrd so‘mga qisqardi. Transfert funksiyasi ajratma me’yoriga ko‘chdi (1-jadval).

1-jadval

Sirdaryo viloyati tuman va shaharlari bo‘yicha tabaqalanish

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025	2026	O‘zg.
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,135	0,168	0,188	0,260	0,025	–0,110
JShDS bo‘yicha ajratma me’yori	0,289	0,289	0,289	0,484	0,557	+0,268
Jon boshiga o‘z daromadlari	0,291	0,291	0,407	0,210	0,410	+0,119
Jon boshiga xarajatlar	0,254	0,287	0,441	0,442	0,453	+0,199

Manba: Sirdaryo viloyati Kengashi qarorlari [8] va aholi soni ma’lumotlari [3] asosida muallif hisob-kitobi.

Natija ko‘rsatkichi bo‘yicha tafovut 5,4 baravarga qisqargan, vosita (me’yor) bo‘yicha esa 1,9 baravarga, haqiqiy resurs bo‘yicha 1,4 baravarga oshgan. Me’yor 2022–2024-yillarda to‘qqiz birlik uchun 20 foiz bo‘lgan, 2026-yilda 10–100 foizga tarqalgan. Tengsizlik yo‘qolmagan, natijadan vositaga ko‘chgan. Jon boshiga o‘z daromadlari bo‘yicha eng yuqori va eng past qiymat farqi 2,33 baravardan 3,09 baravarga kengaygan. Demak, mexanizm vertikal tafovutni quyi bo‘g‘inda yopadi, gorizontal tafovutni esa saqlab qoladi.

Statistik tekshiruvda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti ajratma me’yori, iqtisodiy baza (ming aholiga korxonalar soni), aholi soni va jon boshiga xarajatlar bilan bog‘landi; Hausman va Mundlak testlari ($\chi^2(4) = 212,99$; $p < 0,0001$) qat’iy effektlar modelini tasdiqladi (2-jadval).

2-jadval

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentiga ta’sir etuvchi omillar

Daraja va model	Ajratma me’yori	Iqtisodiy baza	R^2	Kuzatuv
Tuman, shahar: FE (hudud)	0,550*** (0,076)	4,16 (15,81)	0,887	55
Tuman, shahar: FE (hudud va yil)	0,340*** (0,089)	–7,11 (9,55)	0,956	55
Hududlar: pooled OLS	–0,334*** (0,061)	×	0,555	42
Hududlar: + jon boshiga YaHM	–0,123 (0,094)	12,87*** (4,04)	0,677	42

*Izoh: qavs ichida klasterlangan standart xatolar; *** – 1 foizlik ahamiyatlilik darajasi; tuman va shahar modellarida R^2 guruh ichidagi qiymat. Manba: muallif hisob-kitobi (Stata 17).*

Tuman va shahar darajasida me’yor yettita spetsifikatsiyaning barchasida ahamiyatli (koeffitsiyent 0,280–0,861), iqtisodiy baza esa birortasida ham ahamiyatli emas. Me’yorning o‘zi baza yoki xarajat ehtiyoji bilan izohlanmaydi, 2025-yilda esa bazasi zaif birliklarga yuqoriroq me’yor berilgan. Ya’ni me’yor rag‘batlantiruvchi

emas, tenglashtiruvchi vosita sifatida ishlatilmoqda. Hududlar darajasidagi holat 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Hududlar bo‘yicha moliyaviy mustaqillik va soliq olinmasi, 2026-yil

Hudud	Moliyaviy mustaqillik, %	JShDS me’yori, %	Jon boshiga o‘z daromadi, ming so‘m	Soliq olinmasi
Toshkent shahri	97,7	7	4 006	1,092
Navoiy viloyati	97,5	66	3 712	0,876
Toshkent viloyati	96,2	33	2 373	0,951
Buxoro viloyati	83,3	100	2 441	1,170
Qashqadaryo viloyati	82,3	100	1 604	0,972
Samarqand viloyati	80,9	100	1 660	0,984
Sirdaryo viloyati	76,7	100	2 413	1,209
Farg‘ona viloyati	74,8	100	1 644	1,002
Andijon viloyati	71,0	100	1 552	0,872
Xorazm viloyati	70,7	100	1 815	1,023
Jizzax viloyati	70,0	100	1 882	1,002
Namangan viloyati	67,3	100	1 486	0,898
Surxondaryo viloyati	64,4	100	1 317	0,885
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60,4	100	1 869	1,142
Variatsiya koeffitsiyenti	**0,157**	**0,347**	**0,383**	**0,110**

Izoh: moliyaviy mustaqillik va o‘z daromadlari 2026-yil tasdiqlangan prognozi, soliq olinmasi 2025-yil yalpi hududiy mahsuloti asosida baholangan soliq salohiyatiga nisbatan. Manba: O‘RQ-1105-son Qonun [5] va statistika ma’lumotlari [3] asosida muallif hisob-kitobi.

Hududlar darajasida bog‘liqlik ishorasi teskari: me’yor qanchalik yuqori bo‘lsa, mustaqillik shunchalik past. Baza modelga kiritilganda me’yor ahamiyatini yo‘qotadi, chunki bazasi kuchli hududlarga past me’yor beriladi (Toshkent shahri 7, Navoiy viloyati 66, qolgan o‘n bir hudud 100 foiz) [5]. Ikki darajadagi ishora farqi ziddiyat emas, bitta tenglashtirish mantig‘ining ikki ko‘rinishi.

Mahalliy byudjet jon boshiga o‘z daromadlarining jon boshiga yalpi hududiy mahsulotga nisbatan elastikligi 0,544 (2026-yil prognozi) va 0,598 (2025-yil ijrosi), ikkala holatda ham birdan ahamiyatli darajada past. Bazasi ikki baravar katta hududda mahalliy daromad atigi 1,46–1,51 baravar ko‘p. Moliyaviy mustaqillik soliq olinmasi bilan bog‘lanmagan: Sirdaryo viloyati olinma bo‘yicha birinchi (1,209), mustaqillik bo‘yicha yettinchi o‘rinda (76,7 foiz).

O‘z daromadlari ulushining o‘sishi fiskal avtonomiyani to‘liq aks ettirmaydi: ajratma me’yori daromad biriktirish va yillik muvozanat vazifasini birga bajarib, ikkinchisi birinchisini yo‘qqa chiqarmoqda.

Takliflar: 1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotida har bir hudud uchun moliyaviy mustaqillik bilan birga jon boshiga o‘z daromadi va soliq olinmasini e’lon qilish, biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlarni ajratib ko‘rsatish.

2. Viloyat kengashlari tuman va shahar byudjetlari uchun JShDS ajratma me’yorini har bir birlikka alohida emas, barchasi uchun yagona va kamida uch yilga belgilashi, byudjet muvozanatini esa aholi soniga asoslangan formulaviy transfert orqali ta’minlashi [1; 7].

3. Transfertni hisoblashda joriy daromad o‘rniga bazaviy yil prognozini olish, undan ortiq tushumni hududda qoldirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahl R., Bird R.M. Fiscal Decentralization and Local Finance in Developing Countries: Development from Below. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2018. 512 p.

2. Oates W.E. An Essay on Fiscal Federalism // Journal of Economic Literature. 1999. Vol. 37, No. 3. P. 1120–1149.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari: doimiy aholi soni va yalpi hududiy mahsulot. URL: https://stat.uz

4. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son «2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7277618

5. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son «2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7949060

6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonun bilan tasdiqlangan // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4674902

7. Weingast B.R. Second Generation Fiscal Federalism: The Implications of Fiscal Incentives // Journal of Urban Economics. 2009. Vol. 65, No. 3. P. 279–293.

8. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-30-61-9-0-K/21-son, 2022-yil 30-dekabrdagi VI-43-173-9-0-K/22-son, 2023-yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-son, 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-039-9-0-K/24-son va 2025-yil 30-dekabrdagi VII-27-234-9-0-K/25-son qarorlari.